

## XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA PEDAGOGIK MAHORAT VA INNOVATSION METODLARNING TA'SIRI VA O'ZIGA XOSLIGI

**Safarova Asila Bozor qizi**

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti  
Xorijiy til va adabiyot 1-fakulteti 1-kurs talabasi  
Email: [asilasafarova74@gmail.com](mailto:asilasafarova74@gmail.com)

**Annotatsiya:** Bugungi globalashuv jarayonida xorijiy tillarni o'rganish zarurati kundun-kunga ortib bormoqda. Bunday vaziyatda, chet tillarni o'qitishni unumli tashkil etish va bilim samaradorligini oshirishda o'qituvchining pedagogik mahorati va o'qitish metodlarini to'g'ri tanlashi katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada xorijiy tillarni o'qitishda pedagogik mahoratning va o'qituvchi motivatsiyasining qay darajada ahamiyatligi, innovatsion metodlarning, xususan, roli o'yinlarga asoslangan topshiriqlarning o'rganish jarayoniga ta'siri tahlil qilinadi. Tadqiqot mahoratli o'qituvchi prinsiplari va roli o'yinlar, o'quvchilar o'rtasida jamoaviy topshiriqlardan foydalangan holda O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti 1-bosqich talabalari bilan o'tkazildi.

**Kalit so'zlar:** Pedagogik mahorat, pedagogik faoliyat, qobilyat, o'qituvchi motivatsiyasi, innovatsion metodlar, roli o'yinlar, til o'qitish, topshiriqqa asoslangan o'qitish, til kompetensiyasi, kommunikativ kompetensiya.

**Abstract:** Today, in the process of globalization, the need to learn foreign languages is growing. In this situation, in order to effectively organize the teaching of foreign languages and increase the effectiveness of knowledge, it is very important to choose the right pedagogical skills and teaching methods. This article discusses the importance of pedagogical excellence in teaching foreign languages and their trust in the student, as well as the impact of innovative methods, in particular, on the process of learning role-playing games. The study was conducted with first-year students of the Uzbekistan State World Languages University using skillful teaching principles and role-playing games, as well as collective assignments among students.

**Keywords:** Pedagogical skills, pedagogical activity, skills, teacher motivation, innovative methods, role-playing games, language training, task-based training, language competence, communication competence.

**Аннотация:** Сегодня в процессе глобализации возрастает потребность в изучении иностранных языков. В этой ситуации для эффективной организации преподавания иностранных языков и повышения эффективности знаний очень важно правильно выбирать педагогические навыки и методы преподавания. В этой статье анализируется важность педагогического мастерства и наставничества учителей в преподавании иностранных языков, влияние инновационных методов, в частности, на процесс изучения заданий, основанных на ролевых играх. Исследование проводилось со студентами 1-го курса Узбекского государственного университета мировых языков с

использованием умелых преподавательских принципов и ролевых игр, а также коллективных заданий среди учащихся.

**Ключевые слова:** Педагогические навыки, педагогическая деятельность, способности, мотивация учителя, инновационные методы, ролевые игры, обучение языку, основанное на задании, языковая компетенция, коммуникативная компетенция.

### KIRISH

Bugungi rivojlanib borayotgan bir paytda chet tillarini bilish nafaqat qiziqish, shu bilan birga zarurat tusiga aylanib bormoqda desak adashmagan bo'lamiz. Darhaqiqat, kundan kunga xorijiy tillarni o'rganish va o'rgatish masalalari ommalashib bormoqda. Bunday vaziyatda, ya'ni til o'qitish jarayonida o'qituvchida pedagogik mahoratning bo'lishi va o'qitish metodlarini to'g'ri tanlay olishi bilim olishning samaradorligini va tezligini oshishini bir so'z bilan aytganda, o'quv jarayonining muvaffaqiyatini belgilaydi. Pedagogik mahorat sohibi yoki sohibasi bo'lish- pedagog uchun nafaqat ta'lim tarbiyaning samaradorligini ta'minlovchi zamin bo'libgina qolmasdan, ayni vaqtda uning jamiyatdagi o'rnini va obro'-e'tiborini ham oshiradi va o'qituvchilarga nisbatan hurmatni yuzaga keltiradi. Ushbu mavzuda xorijiy tillarni o'qitishda pedagogik mahorat nima va uning mohiyati nimalardan iborat? degan bir qator savollar yotadi. Bugungi kunda, zamon psixologiyasi va pedagogikasi "pedagogik mahorat" tushunchasiga turlicha izoh beradi. Misol uchun, "Pedagogik ensklopediya"da quyidagicha izohlanadi: "O'z kasbining mohir ustasi bo'lgan, yuksak darajada madaniyatli, o'z fanini chuqur biladigan, yondash fan sohalarini yaxshi tahlil eta oladigan, tarbiyalash va o'qitish uslubiyatini mukammal egallagan mutaxassis". Ushbu ta'rifdan kelib chiqib o'qituvchi pedagogik mahoratini quyidagilarga ajratishimiz mumkin:

1. Madaniyati yuqori, o'z sohasining chinakam mutaxasisi va shu bilan birga fan tarmog'idagi yondash fanlarda ham ilm malakasiga ega.
2. Pedagogika va psixologiya kabi fan sohalaridan ham puxta bilimga ega. Ya'nikim o'quvchi yoshlarga faqat bilim berib qo'ya qolmay, ularni qiyin vaziyatlarda qo'llay olish ko'nikmasini va o'quvchi motivatsiyasini oshirish.
3. Ta'lim berish jarayonida zamonaviy texnologiyalar va samarali metodlardan foydalana olish ko'nikmalariga ega bo'lish. (Zero, metodlar asosida dars o'tish dars jarayonining samaraliligini va o'quvchilarning qiziqishini oshirsa, zamonaviy texnologilardan foydalanish zamon talabidir).

Chet tillarini o'qitishning asosiy maqsadi- talabalarning kommunikativ madaniyatini shakllantirish, chet tilini amaliy o'rganishga moslashtirish va o'rgatishdir. O'qituvchining vazifasi har bir talabaga amaliy o'rganish uchun shart sharoitlar yaratish, har bir talabaning o'z faoliyatini, ijodkorligini va imkoniyatlarini namoyish etishiga imkon beradigan ta'lim usullaridan foydalanishdir. Zero, har bir shaxs o'z imkoniyatlarini anglagach va uni boshqa insonlarga ham namoyish etgachgina rivojlana va jamiyatda o'z o'rniga ega ekanligini tushuna boshlaydi. O'qituvchi zimmasidagi asosiy mas'uliyat xorijiy tillarni o'qitishda talabaning bilim faoliyatini va salohiyatini faollashtirishdir.

### ADABIYOTLAR TAHLILI

Zamonaviy ta'lim tizimida chet tillarini o'qitish jarayonida o'qituvchi o'rni, motivatsiyasining ahamiyati va yangicha yondashuvlar, metodikalar faol o'quv jarayonlarining samaradorligini ta'minlaydi. Darhaqiqat, an'anaviy grammatik-qoidaviy yondashuvlar o'rniga interaktiv va talabani faol ishtirokchi sifatida shakllantiruvchi innovatsion metodlar keng qo'llanilmoqda. Bunga misol qilib, o'zining mashhur asarlarida Hamer (2007) til o'qitish jarayonida o'qituvchining faolligi va motivatsiyani asosiy elementlardan biri sifatida ko'rsatadi. Unga ko'ra, yuqori bilim ko'nikmasiga va motivatsiyaga ega bo'lgan o'qituvchi o'z darslariga ijodiy yondashadi, turli metodlarni sinab ko'radi va talabalarni ham faol bo'lishga undaydi. Bundan tashqari u o'qituvchining metodologik tayyorgarligini talaba faolligiga bevosita ta'sir qilishini ko'rsatgan, bu esa hech qanday inkorlarsiz pedagogik mahorat va metodlarning o'zaro bog'liqligini asoslaydi. Do'rnyei (2001) ta'kidlashicha, o'qituvchi motivatsiyasi ikki yo'nalishda ta'sir ko'rsatadi: birinchidan, u dars sifati va mazmunini belgilaydi, ikkinchidan, u o'quvchilarning ichki motivatsiyasini oshiradi va rag'latlantiradi. U motivatsiyani ichki (kasbga bo'lgan muhabbat, o'z kasbidan qoniqish va shaxsiy maqsadlar) va tashqi (ish haqi va ijtimoiy maqom) kabi guruhlarga ajratadi. Darhaqiqat, ushbu ikki guruhning birlashuvidan o'z kasbining ustasi bo'lgan insonni ko'z oldimizga keltira olamiz. Nunan (2004) yilda esa topshiriqqa asoslangan til o'qitishning kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishdagi rolini ta'kidlagan. Bundan kelib chiqib, o'quv jarayonida innovatsion metodlardan foyladanishni samarali yo'l ekanligiga yana bir bora guvoh bo'lishimiz mumkin. Day (2004) esa professional o'sish va o'zini rivojlantirish ehtiyoji o'qituvchining o'ziga bo'lgan talablarini doimiy ravishda yangilab turishini ko'rsatadi. U pedagogik innovatsiyalarni professionallikka intilayotgan kadrlarning o'z ustida ishlashdagi motivatsiyasini saqlab qolishdagi asosiy vosita sifatida ta'riflaydi.

Richards va Rodgers (2001) tomonidan ta'kidlanganidek, innovatsion metodlarning asosiy afzalligi – bu talabani markazga qo'ygan, kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga yo'naltirilgan yondashuvlarda namoyon bo'ladi. Bu yondashuvlar ichida Kommunikativ til o'rgatish (CLT), Vazifaga asoslangan o'qitish (TBLT) va Muammo yechishga asoslangan o'qitish (PBL) asosiy o'rinni egallaydi. Nunan (2004) TBLT modelini asoslab, til o'rgatishda real hayotiy vazifalar orqali o'quvchilarning til ko'nikmalarini mustahkamlashni samarali deb hisoblaydi. Ushbu metodlar orqali talabalar faqat nazariy bilim emas, balki amaliy muloqotga kirishish malakasini ham egallaydi. Xorijiy tillarni o'rganish jarayonida esa amaliy ko'nikmalarga ega bo'lish juda katta ahamiyat kasb etadi. Willis (1996) o'z tadqiqotida vazifaga asoslangan o'qitish strukturasi aniq bosqichlarga ajratgan: tayyorlov, vazifa bajarish va tahlil qilish. Bu bosqichlar o'quvchining erkin fikrlashi va mustaqil ishlash ko'nikmasini rivojlantiradi. Bu uch bosqich bir-biriga o'zaro bog'liq bo'lib bir-birini taqazo etadi va bilim olish jarayonini davomli bo'lishini ta'minlaydi.

Shuningdek, Larsen-Freeman (2000) innovatsion metodlarni ta'lim jarayonida muvaffaqiyatli joriy etish uchun o'qituvchining metodik salohiyati va yangilikka ochiqligi muhimligini urg'ulaydi. Innovatsion usullar samaradorligi ko'p jihatdan o'qituvchining kreativligi va moslashuvchanligiga bog'liq. Zero, zamon bilan hamnafas har bir kadr o'quv jarayonlarini turli innovatsion metodlar bilan tashkil etishning naqadar ahamiyatga molik ekanini anglaydi. Brown (2007) innovatsion metodlar nafaqat til o'rganishni yengillashtirish, balki o'quvchilarni motivatsiyalashda ham muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi. Bu metodlar orqali talabalar faol ishtirokchi, muammoni hal qiluvchi va tanqidiy fikrlovchi shaxs sifatida shakllanadi. Yangi texnologiyalarning (masalan, raqamli platformalar, interaktiv dasturlar, AI yordamida til o'rgatish) o'quv jarayoniga tatbiqi ham innovatsion metodlarning bir qismidir deya ta'kidlagan.

### **METODOLOGIYA**

Taqdidot O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining birinchi bosqich talabalari bilan o'tkazildi va tadqiqotda 30 ta talaba ishtirok etdi. Dastlab, talabalar o'rtasida til kompetensiyasi bo'yicha diagnostika testlar va dars jarayonida interaktiv metodlar jumladan rolli o'yinlar, guruh bo'lib ishlash mashg'ulotlari va Kahoot ,quiz teslarlardan foydalanishning o'quv jarayoni va samarasiga ta'sirini baholash bo'yicha so'rovnomalar olindi. So'ngra bir oy davomida aynan interaktiv metodlarga va rolli o'yinlarga asoslangan holda malakali pedagoglar tomonidan darslar tashkil etildi. Dars jarayonlarida aktiv metodlardan foydalangan holda ikki tomonning ham ya'ni o'qituvchining ham talabalarning ham faollik darajasi va ishtiroki kuzatildi. Zero, bu turdagi metodologik o'yin va dasturlardan foydalanish nafaqat talabalarning o'rganish jarayonini tezlashtiradi va yaxshilaydi, balki o'qituvchilarning ham darsga bo'lgan munosabatlarini va dars o'tish ishtiyoqlarini oshirishi turgan gap. Dars jarayonida rolli o'yinlardan foydalanish. O'quv jarayonlarda talabalar 6 tadan bo'lib 5 ta kichkina guruhlarga ajratildi va ularga turli vaziyatlar aytili. Ular esa birgalikda aynan o'sha vaziyatlarda o'rganayotgan tillarida nutqlar so'zlashib bir-birlari bilan muloqot qilishdi. Bu esa real voqealarda ham o'rganayotgan tilni qanday qo'llash bo'yicha bir tajriba bo'ldi desak adashmagan bo'lamiz. Guruh bo'lib ishlash mashg'ulotlari. Ushbu metodda, o'quvchilar guruhlarga bo'lindi va ularga birgalikda ishlash uchun turli proyektlar va vazifalar berildi. Ular vazifani muhokama qilish jarayonini ham, topshiriqni bajarish jarayonini ham o'rganayotgan tillarida olib borishlari va jamoaviy tarzda ishlashlari ko'zda tutildi. Bu esa ularga xorijiy tilda gapirish ko'nikmasi bilan bir qatorda jamiyatda o'zaro kommunikatsiya qilish ko'nikmalari va kolektiv ish tushunchasini shakllantiradi. Bir oy davom etgan ushbu tadqiqot so'ngida, yakuniy testlar va shu vaqt oralig'ida bo'lib o'tgan dars jarayonlaridagi o'zgarishlar va yo'l qo'yilgan kamchiliklar haqida o'g'zaki suhbat tashkil etildi. Oxirida yakuniy o'zgarishlar baholandi.

### **NATIJARAR VA MUHOKAMA**

Eksperimentdan so'ng talabalar grammatik va lug'aviy ko'nikmalarda sezilarli ijobiy o'zgarishlarga erishganliklari kuzatildi. Eng ahamiyatli taraflaridan biri

shundaki, talabalar ushbu ko'nikmlarni shunchaki naziriy bilish bilan cheklanib qolmasdan, metodologik dasturlar orqali amaliy qo'llash ko'nikmalarini ham oshirishdi. Bundan tashqari, ushbu metodlar faqatgina bir talabaning ishtirokini emas, balki jamoaviy birgalikda ishlashni taqazzo etadi. Ushbu vaziyatda, talabarni bilim darajalarini hisobga olib, aralash jamoalar tuzilishi va har bir ishtirokchiga vazifa berilishi talabalardagi bilimni oshirishga qo'shimcha sifatida mas'uliyat tushunchasini ham shakllantiradi. Suhbat so'ngida, talabalarning deyarli 90 %i o'z fikrlarini erkin ifodalashga harakat qilishdi, o'tilgan darslar haqida muhokamalar, feedbacklar berildi va ijtimoiy o'zaro ta'sir kuchaydi. Bu rolli o'yinlarning va guruh bo'lib ishlash mashg'ulotlarining nafaqat til ko'nikmalarini, balki ijtimoiy kompetensiyalarni ham rivojlantirishini ko'rsatdi. O'qituvchining pedagogik mahorati va metodik yondashuvi esa bu jarayonda hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qildi. Zero, darsning qiziqarli bo'lishi talabalarning ishtiroki va faolligiga bog'liq bo'lsa, darsda qatnashayotgan har bir talabani bilim darajasi, qiziqishi va qobiliyatlarini hisobga olib ularni darsga va mavzuga qiziqtirish va ushbu bilimning o'rganuvchi hayotidagi zaruriyatini tushuntirish har bir pedagogik mahorat sohibi bo'lmish o'qituvchilarning oldida turgan vazifasi hisoblanadi. O'tkazilgan eksperiment davomida nafaqat talabalar, balki o'qituvchining ham darsga bo'lgan munosabatida o'zgarish kuzatildi. Interaktiv metodlardan foydalanish o'qituvchiga dars jarayonini jonli va qiziqarli qilish imkonini berdi. Bu esa uning kasbiy motivatsiyasini, pedagogning o'ziga va o'z bilmiga bo'lgan ishonchini oshirib, darslarni yanada mas'uliyat bilan rejalashtirishga turtki bo'ldi. O'qituvchi motivatsiyasining va kasbiy mahoratiga bo'lgan ishonchining oshishi orqali darslarda innovatsion yondashuvlar, ijodiy topshiriqlar va individual yondashuv kuchaydi. Bu esa talabalar faoliyatiga va darsga bo'lgan munosabatlariga ham ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Harmer va Dörnyei nazariyalariga ko'ra, o'qituvchining ichki motivatsiyasi darslarning muvaffaqiyatini belgilovchi eng muhim omillardan biridir.

Shuningdek, metodik yangiliklarni tatbiq qilish o'qituvchi uchun professional o'sish imkonini yaratdi va ushbu sohadagi bilimlarini yanada mustahkamladi, bu esa Day (2004) tomonidan ilgari surilgan "doimiy kasbiy rivojlanish muvaffaqiyat poydevori" degan fikrni amalda isbotladi.

### XULOSA

Xorijiy tillarni o'qitishda pedagogik mahorat va innovatsion metodlar o'zaro chambarchas bog'liq va ularning o'rnini beqiyosdir. Ushbu ikki omil ham bir birini taqazzo etadi va darsning muvaffaqiyatli bo'lishini ta'minlaydi. Zamonaviy yondashuvlar, xususan, interaktiv metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish va rolli o'yinlar kabi vositalar nafaqat o'quvchilarning til o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshiradi, balki ularning amaliy ko'nikmalarini shakllantirishda ham muhim ahamiyatga ega. Malakali pedagog til o'rganish jarayonini samarali tashkil etish, individual yondashuvni qo'llash va o'quv muhitini motivatsiyalovchi tarzda boshqarish orqali o'quvchilarda bilim asoslarini yaratadi. Bundan tashqari pedagogik mahoratga ega va innovatsion metodlardan umumli foydalana oluvchi o'qituvchi darsni jonlantirishga ( talabalarning dars

jarayonidagi faolligini oshirishga), talabalar bilan samarali muloqot oʻrnatishga ( bunda faol metodlar yaʼni ham oʻqituvchi ham talabaning ishtiroki va muloqoti nazarda tutilmoqda) va yangiliklar joriy etishga tayyor boʻladi. Zamonaviy metodlar esa bu jarayonda universal vosita boʻlib, nafaqat talabalar, balki oʻqituvchining ham kasbiy qoniqish darajasini oshiradi, chunonchi inson oʻz qilayotgan ishida va kasbida ishonch bilan harakat qilar ekan muvaffaqiyat tomon qadam tashlaydi. Shu bois, xorijiy til oʻqitishda pedagogik mahorat va innovatsion metodlarning uygʻunligi yuqori natijalarga erishishda muhim omil hisoblanadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Saidnazarova Nodira Otaxon qizi . INTERNATIONAL CONFERENCE ON INNOVATE DEVELOPMENT OF EDUCATION 2023.182-191 betlar.
2. Abasov, ZA. A discipline as a subject of pedagogical technology /ZA Abasov //School technologies. 2001.-No 2 – C 39-44
3. Kenjayeva A. Pedagogik mahorat asoslari – T: “Navroʻz”, 2012
4. Harmer , J(2007) .The Practice of English Language Teaching. Person Education.
5. Nunan, D (2004) . Task-Based Language Teaching. Cambridge University Press.
6. Day, C.(2004) . A Passion for Teaching Routledge Falmer.
7. Richards, J.C & Rodgers, T .S (2001) Approaches and methods in language teaching (2nd ed)
8. Doʻrnyei ,Z (2001). Motivational Stratigies in the Language Classroom. Cambridge University Press.
9. Larsen-Freeman, D. (2000) Techniques and principles in language teaching. Oxford University Press.
10. Brown,H .D (2007) Principles of learning and teaching. Person Longman.